

14-yanvar - “Vatan himoyachilari kuni” munosabati bilan Toshkent davlat sharqshunoslik institutida amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha HISOBOT

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 9-dekabrdagi F-4576-sonli “Vatan himoyachilari kuni”ni nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi, vazirlikning 2015-yil 12-dekabrdagi 480-sonli buyrug‘ida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topishiga 24 yil to‘lishi munosabati bilan institut professor-o‘qituvchilari va talabalari 2016-yilning 7, 8, 9, 11, 12, va 13-yanvar kunlari “Milliy armiyamiz – g‘ururimiz, iftixorimiz” shiori ostida “Jasorat bog‘ida” joylashgan “Vatanga qasamyod” monumenti va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Markaziy muzeyiga tashrif buyurdilar. Talabalar muzey va monument joylashgan “Jasorat” bog‘iga borgach, u yerda “Vatanga qasamyod” monumentini ziyorat qildilar, vatan himoyachilariga bo‘lgan chuqur hurmatlarini bildirdilar.

Shundan so‘ng esa alohida ahamiyat kasb etuvchi O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Markaziy muzeyiga kirib, muzey eksponatlarni katta ishtiyoq bilan tomosha qildilar va mulohazalarini bildirdilar.

Muzeyning uchinchi qavatida joylashgan qadimgi qurollar, Temuriylar davridagi jangchilarning kiyim-boshlari, qurol-yarog‘lari, o‘sha davr aks etgan moybo‘yoq rasmlar to‘g‘risida, undan keyingi bo‘limda Chor Rossiyasi davridagi harbiylarning yashash sharoiti, har bir unvonning kiyimi, harbiylarning turmush tarzi hamda II Jahon urushi davri voqealari aks etgan fotosuratlar borasida, shuningdek, O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng harbiylarga yaratilgan sharoitlar, ular qo‘lga kiritgan yutuqlar, unvonlar haqida batafsil ma‘lumotlar oldilar. “Jasorat” bog‘iga uyushtirilgan safar so‘ngida talabalar vatan hissini, vatanga iftixor tuyg‘usini jo‘shqinlashtiruvchi bu kabi obidalarga, muzey va sayrgohlarga tez-tez kelib turish istagini bildirdilar.

Tayanchim va suyanchim, faxru iftixorimsan, muqaddas Vatan!

Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan Toshkent davlat sharqshunoslik instituti professor-o‘qituvchilari hamda talaba-yoshlari O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga qarashli 07070- va 71186-sonli harbiy qismlarga tashrif buyurdilar.

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti professor-o‘qituvchilari hamda talaba-yoshlari harbiy qismning ofiserlari va muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan askarlari uchun bayram tuhfasi sifatida tayyorlagan badiiy chiqishlarini namoyish etdilar. Tadbir avvalida professor-o‘qituvchilar Vatanimiz sarhadlarini himoyasi, xavfsizligimizni ta‘minlash yo‘lida xizmat qilayotgan barcha ofiser, serjantlarni bayram bilan samimiy muborakbod etdilar. Vatanimiz himoyachilariga mas‘uliyatli, shuning bilan birga, mashaqqatli xizmatlari davomida muvaffaqiyatlar tiladilar. So‘ng, tadbirning badiiy qismida Vatanimiz himoyachilari bo‘lmish mard o‘g‘lonlar haqida “Zulfiya” davlat mukofoti sovrindori D.Usmonova o‘z she‘rlarini o‘zbek va xitoy tillarida aytib berdi. Institutning “Sharqona” Quvnoqlar va Zukkolar jamoasi harbiycha hazillari bilan askarlarga kulgu ulashdilar. Tadbir kuy-qo‘shiqqa ulanib barchada katta taassurot qoldirdi. Xarbiy qismlar komandirlari polpolkovnik Sh.Abduraemov va polpolkovnik V.Uzoqovlar xarbiylarga ko‘tarinki kayfiyat ulashgan Toshkent davlat sharqshunoslik instituti jamoasiga minnaddorchilik bildirdilar.

Tadbir yakunida harbiy xizmatchilarga institutning esdalik sovg‘alari topshirildi.

Sizning jasoratingiz yodimizda

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti rektori A.Mannonov boshchiligidagi institut vakillari Vatan ximoyachilari kuni munosabati bilan xarbiy xizmatni o'tash vaqtida xalok bo'lgan xarbiy xizmatchilar uylariga tashrif buyurdilar. Vatanimiz sarxadlarini ximoya qilishda xalok bo'lgan katta leytenant Abkelyamov Nariman Nasirovich, Xarbiy xizmatni o'tash vaqtida xalok bo'lganlar podpolkovnik B.Sarmanov va mayor Shodiyev I. xonadonlarida bo'lib, ularni bayram bilan tabriklab, marxum ofiserlarning tengsiz jasoratlari hozirgi yoshlarimiz uchun namuna ekanligi, yurtimizdagi tinchlik va osoyishtalik bu kabi mard o'g'lonlarning buyuk xizmatlari ekanligini faxr bilan yodga oldilar. Tashrif davomida xonadon egalariga institut jamoasining esdalik sovg'alari topshirildi.

Jasorat va mardlik saboqlari

Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan 12 va 13-yanvar kunlari ToshDShI fakultetlarida "Jasorat darslari" bo'lib o'tdi. Mazkur mashg'ulotlar noan'anaviy tarzda o'tkazildi. Darslarni institut professor-o'qituvchilari bilan birga Ikkinchi Jahon urushida ishtirokchilari, mehnat faxriylari, hozirgi kunda harbiy yutuqlarga erishayotgan ofiserlar, xarbiy bilim yurt ustozlari ishtirok etdilar. Mana shunday darslardan biri Mirobod tumani xokimligi bilan hamkorlikda o'tkazildi. Tuman "Nuroniylar" jamg'armasi raisi, faxriy o'qituvchi B.Usmonov, Ikkinchi Jahon urushi ishtirokchisi V.Yashkin talaba-yoshlarga ona-Vatanni sevishtirish, Vatan ximoyasi muqaddas burch ekanligi, urush degan so'z insoniyatning boshiga ofatlar olib kelishi, hozirgi dorilomon kunimizda xalqimizga, xususan yoshlarga yaratilayotgan sharoitlar, ulardan samarali foydalanish lozimligi, chuqur bilim olish kerakligi va bizning yoshlar hech kimdan kam emasliklari xaqida xayotiy misollar bilan talaba-yoshlarga o'z istaklarini bildirdilar. Dars muloqat shaklida bo'lganligi uchun talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qilib, kerakli javoblarni oldilar. Faxriy harbiy xizmatchilarga institut esdalik sovg'alari topshirildi.

14 yanvar – "Vatan himoyachilari kuni" munosabati bilan nuroniylar bilan uchrashuv

2016 yil 12-yanvarda Toshkent davlat sharqshunoslik institutida 14-yanvar – "Vatan himoyachilari kuni" munosabati bilan Respublika "Nuroniylar" jamg'armasi hamda Mirobod tumani "Bog'ishamol" mahallasi bilan hamkorlikda davra suhbatini o'tkazildi. Davra suhbatida Respublika "Nuroniylar" jamg'armasi hodimi Xojimatov Akrom, Mirobod tumani "Bog'ishamol" mahallasi "Nuroniylar" jamg'armasi mas'ul hodimasi Tulepbergenova Jamila Majidovna, mahalla maslahatchisi Solixova Laziza Narimonovna, mahalla faoli Zaynulina Dilafuz Minigazizovna hamda institut talabalari, professor-ustozlari ishtirok etishdi. Dastlab nuroniy yoshdagi mehmonlar tinchlikning qadri, yoshlarga yaratilgan sharoitlar va mamlakatimizda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashda Vatan himoyachilarining o'zining borasida o'z fikrlarini bildirishdi. Shundan so'ng talabalarning chiqishlari, fikr almashishlar va o'zaro savol-javoblar bo'lib o'tdi. Davra suhbatini yakunida esdalik sovg'alari topshirildi va esdalik uchun suratga tushdilar.

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti professor-o'qituvchilari hamda talaba-yoshlarining Toshkent Oliy Umumqo'shin Qo'mondonlik bilim yurtiga va TATuning Mudofaa Vazirligiga qarashli maxsus fakultetiga tashrifi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 9-dekabrda R-4576-sonli "Vatan himoyachilari kuni"ni nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishi hamda vazirlikning 2015-yil 12-dekabrda 480-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida institut rektorining 2015 yil 15-dekabrda 01-367-sonli buyrug'i chiqarildi.

Mazkur buyruq ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Qurolli Kuchlari safida xizmat qilayotgan ofiserlar, serjantlar va harbiy ta'lim sohasida ko'p yillar samarali mehnat qilib kelayotgan o'qituvchi-ofiserlar, faxriylar ishtirokida o'tkaziladigan tadbirlar rejasi asosida Toshkent davlat sharqshunoslik instituti professor-o'qituvchilar va talaba-yoshlarining Toshkent Oliy Umumqo'shin Qo'mondonlik bilim yurtiga tashrifi uyushtirildi. Ushbu bilim yurtida xizmat qilayotgan ofiserlar, serjantlar va ta'lim olayotgan kursantlarini 14 yanvar Vatan himoyachilari kuni bilan institut jamoasi nomidan institut rektori A.Mannonov samimiy muborakbod etdi. Institut talabalarining ingliz, koreys, yapon hamda hind tillaridagi tabriklari bilim yurti ofiser, serjant va ta'lim olayotgan kursantlarida chuqur taassurot qoldirdi. So'ng institut jamoasi bilim yurtining shart-sharoitlari bilan tanishtirildi. Bilim yurtining o'quv mashg'ulotlar o'tkaziladigan maydonchalari institut talabalarida katta qiziqish uyg'otdi. Harbiy xizmatchilarga institut esdalik sovg'alari topshirildi. Tashrif so'ngida bilim yurtining faollar zalida bilim yurti harbiy xizmatchilari bilan birgalikda "Mardlar maktabi" nomli filmi tomosha qilindi.

Vatan himoyasi - muqaddas burch

Toshkent davlat sharqshunoslik institutida 14 yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan institut Ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, "Kamolot" Yo'lX boshlang'ich tashkiloti xamda Xotin-qizlar qo'mitasi hamkorligida ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi. Mazkur tadbirda Toshkent Oliy Umumqo'shin Qo'mondonlik bilim yurti ofiserlari, kursantlari, xarbiy orkestri jamoasi, M.Ulug'bek nomidagi Toshkent davlat universiteti Harbiy kafedra ofiserlari xamda O'zbek milliy akademik drama teatri aktyorlari O'zbekiston xalq artistlari M.Ismoilov va V.Yunusovalar ishtirok etdilar. Institut rektori A.Mannonov tadbirni ochar ekan, barchani, shu jumladan, tadbirda ishtirok etayotgan harbiy xizmatchilarni Vatan himoyachilari kuni bilan tabriklab, ularga sixat- salomatlik, yurtimiz sarxadlarini ximoya qilishdek o'ta muhim vazifalarni bajarishlarida ulkan muvoffaqiyatlar tiladi. Shuningdek, u Prezidentimizning Vatan himoyachilariga yo'llagan tabrigi haqida yig'ilganlarga so'zlab berdi. Institutda yuzdan ortiq muddatli harbiy xizmatni tugallab, ilm olayotgan talaba-yoshlar institutning barcha jabhalarida faol ekanliklari, ulardagi xarbiy intizom barchaga o'rnak bo'larli darajadali xaqida fikr bildirdi. Institut jamoasini O'zbekiston xalq artistlari M.Ismoilov va V.Yunusovalar, M.Ulug'bek nomidagi Toshkent davlat universiteti Xarbiy kafedra ofiserlarlari nomidan podpolkovnik Q.Xalilullayev, Toshkent Oliy Umumqo'shin Qo'mondonlik bilim yurti raxbariyati, ofiserlari va kursantlari nomidan mayor M.Zohidov qutladilar. Tadbirning badiiy qismida Toshkent Oliy Umumqo'shin Qo'mondonlik bilim yurti xarbiy orkestri jamoasi, institut talabalari J. Xamdamov, D.Polyakov, N.Boymirzayeva xamda xushovoz xonanda M.Berdiyevlarning chiqishlari barchada ko'tarinki kayfiyat uyg'otdi. Institutga tashrif buyurgan harbiylar va mehmonlarga esdalik sovg'alari topshirildi.

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti tomonidan 14 yanvar "Vatan himoyachilari kuni" munosabati bilan o'tkazilgan ma'rifiy tadbirlar, tashriflar Respublika ommaviy axborot vositalarida keng yoritildi. Jumladan: "Xalq so'zi", "Pravda Vostoka", "Ma'rifat", "Uchitel Uzbekistana" gazetalarida, "O'zbekiston", "Yoshlar", "Ma'naviyat va ma'rifat" telekanallarida va "www.tashgiv.uz", "www.fikr.uz.", "www.kun.uz." kabi saytlarda keng yoritildi. Ushbu bayram arafasida "Sharq" nashriyoti bilan xamkorlikda kitob savdosi tashkil qilindi.

Ma'rifiy tadbirlar davomida Toshkent davlat sharqshunoslik instituti jamoasiga harbiy qismlardan tashakkurnomalar e'lon qilindi.

Ona-Vatan himoyachilari, Qurolli Kuchlarimizning mard va jasur xarbiylarini e'zozlash davom etmoqda.

Ma'naviyat va ma'rifat bo'limi